

VOLUME II | ISSUE 3 | MAY-JUNE

2024

SPECIAL ISSUE

Journal of Pedagogical and Psychological Studies

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ISSN: 2181-4066

Available online at www.imfaktor.com



ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 3 СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР 3

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE 3

TOSHKENT - 2024

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-3>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология фанлари доктори, доцент
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергановна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)
20. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
21. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д., (PhD)
22. Ўринова Озодахон Ўлжаевна – педагогика ф.б.ф.д., (PhD)
23. Рўзиёв Умар Музафарович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
24. Останов Жасур Шопиржонович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
25. Лола Камоловна Илиева (Бахриддинова) – педагогика фанлари номзоди, доцент
26. Муродова Дурдонахон Райимжон қизи – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор
24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

ORIPOVA Ra'noxon Ibroximovna

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI

"Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat"

kafedrası mudiri, p.f.n., dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11483637>

ТА'ЛИМНИ ТЕХНОЛОГИЯЛАСHTIRISDAGI ASOSIY TUSHUNCHALAR

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, bolalarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishi, ta'lim-tarbiya jarayonining didaktik jihatdan ta'minlanishi ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan asosiy omillar yoritib berilgan. Bu o'z navbatida pedagoglar zimmasiga ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi yutuqlarini, yangiliklarni tatbiq etish kabi turli vazifalarni yuklaydi.

Kalit so'zlar: texnologiya, metod, shakl vosita, tabaqalashtirish, tashxis, rejalashtirish, nazorat, baholash, musiqa ta'limi, baxshichilik, natija, samaradorlik.

ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ ТЕХНОЛОГИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается использование передовых педагогических технологий в образовательном процессе, внедрение дифференцированного подхода к образованию в соответствии со способностями и возможностями детей, создание современных педагогических и методических комплексов, дидактическое обеспечение обучения и обучения. процесса выделены основные факторы, направленные на совершенствование системы управления образованием. Это, в свою очередь, возлагает на педагогов различные задачи, такие как внедрение достижений и инноваций мирового уровня в образовании, науке, технике и технологиях.

Ключевые слова: технология, метод, инструмент, классификация, диагностика, планирование, контроль, оценка, музыкальное образование, дача, результат, эффективность.

BASIC CONCEPTS IN THE TECHNOLOGIZATION OF EDUCATION

ANNOTATION

This article discusses the use of advanced pedagogical technologies in the educational process, the introduction of a differentiated approach to education in accordance with the abilities and capabilities of children, the creation of modern pedagogical and methodological complexes, and didactic support for teaching and learning. process, the main factors aimed at improving the education management system are highlighted. This, in turn, places various challenges on educators, such as introducing world-class advances and innovations in education, science, engineering and technology.

Key words: technology, method, tool, classification, diagnostics, planning, control, evaluation, music education, giving, result, efficiency.

Yangilanayotgan jamiyatda milliy qadriyatlarni tiklash, shaxs ma'naviyatini yuksaltirishga doir yuqoridagi vazifalar sog'lom ijtimoiy muhitning qaror topishi, fuqarolar ma'naviy-axloqiy yetukligini ta'minlash masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, ta'lim-tarbiyaning maqsadli, tizimli, uzluksiz va izchil olib borilayotganligi, yosh avlod imkoniyatlarining amalga oshirilishiga yo'naltirilganligi kabi omillarning yuzaga chiqishi bilan amalga oshiriladi.

Mazkur omillar o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, salohiyati, ma'naviy-axloqiy sifatleri, shu bilan birga ruhiy holatini tarbiyalashda ham o'ziga xos o'ringa ega [4].

Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasini ilgari surgan. U ta'limni "texnikaviy" qilishga undagan, ya'ni hamma narsa, nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi, o'quv jarayonini, u "didaktik mashina" deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun: aniq qo'yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan. Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya «o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash yo'li orqali ta'lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo'llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir».

Masalan, "tilshunoslikdagi assotsiativ eksperiment - bu tildagi so'zlar yoki tushunchalar o'rtasidagi assotsiativ aloqalarni o'rganish uchun ishlatiladigan tadqiqot usulidir. ssotsiativ metodning bir qismi sifatida eksperimentlar o'tkaziladi, unda sub'ektlardan berilgan stimulg nisbatan birinchi bo'lib aqlga kelgan so'zni nomlash so'raladi. Masalan, stimulg "daraxt" so'zi bo'lsa, sub'ektlar "burglar", "po'stloq", "novdalar" kabi assotsiativ so'zlarni nomlashlari mumkin. Shundan so'ng, hosil bo'lgan assotsiatsiyalar tahlil qilinadi va ular orasidagi umumiy tendensiyalar va aloqalar aniqlanadi" [6].

Shu kabi barcha fanlarni o'qitishda ta'limning interfaol metodlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi asosiy toifa va tushunchalar.

«**Texnologiya**» yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib «*techne*» - mahorat, san'at, malaka va «*logos*» - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi.

Ta'limni texnologiyalashtirish – bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir.

Ta'lim texnologiyasi:

- bu mavjud sharoit va o'rnatilgan vaqtda belgilangan ta'limiy maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta'minlovchi, *muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo'l va o'qitish vositalarining tartibli yig'indisi* (ta'lim berish texnologiyasining jarayon-bayonli jihati);

- bu mavjud yuzaga kelgan ta'limiy jarayon sub'ektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta'lim berish texnologiyasining amaliy-jarayon jihati) tartibi.

«**Pedagogik texnologiya**» - pedagogik hodisa va ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi jarayonda qo'llaniladigan tushuncha.

«**Ta'limiy texnologiya**» - "ta'lim olish shakllarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuvchi, ya'ni butun ta'lim berish jarayonini hamda texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda bilimlarni o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli" (YuNESKO).

Ta'lim jarayonida boshqaruvning o'рни va mohiyati.

Boshqaruv - bu tartibga solish darajasini oshirish orqali ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning maxsus shakli.

Boshqaruv jarayonining mohiyati maqsad-natijani mos kelish yo'nalishi bo'yicha harakatni yo'lga solishdan iborat bo'ladi.

O'qitish rejasini tuzishning har bosqichida o'qituvchining boshqaruv harakatlarini ko'rib chiqamiz.

Maqsadni belgilash - didaktik vazifalarni aniqlash, o'quv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bo'lib, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi faoliyati harakatini umumiy natijaga yo'naltiradi.

Tashxis - ta'lim oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy-texnik imkoniyatlarni o'rganish. Bu maqsadni to'g'rilash zarurligi va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

Bashorat qilish - o'rnatilgan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o'quv faoliyati natijalarini oldindan ko'rish.

Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash.

Tashxis, bashorat qilish va loyihalash rejani ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Rejalashtirish - oldindagi o'zaro bog'liq pedagogik va o'quv faoliyatining rejasini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. U texnologik xarita ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Tashkillashtirish - ta'lim beruvchi tomonidan talabalarni belgilangan ishga jalb qilish, belgilangan maqsadga erishishda ular bilan hamkorlik qilish.

Axborotli ta'minlash - o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazib berishning yo'l va vositalarini amalga oshirish. Bunda yig'ilgan axborot jarayonining borishini tezkorlikda o'zgartirishni, ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni, samarali vositalarni kiritishga imkon beradi.

Nazorat, baholash va o'zgartirish kiritish - rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni yaratish, pedagogik ta'sir etish ob'ekti o'zgarishini muvofiqlash.

Tugallangan jarayon tahlili - samarasizlikni, ularning paydo bo'lish sababini aniqlash, kelgusi takror ishlab chiqiladigan davrda unga yo'l qo'yimaslik choralari aniqlash.

"O'qituvchining kasbiy mahorati mezonlari, uning ishining maqsadi va usullari haqidagi g'oya o'zgarimoqda. O'zgartirishlar ta'lim natijalarini baholashning mazmuni va usullariga taalluqlidir. Endi ishlash bolaning bilimini, va hatto shaxsiy yutuqlarini tavsiflovchi murakkab ko'rsatkichlar to'plamidan iborat" [1].

Ta’limni texnologiyalashtirish – bu natijaga erishish, samaradorlikka erishish demakdir. Shu bois, uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ta’limni texnologiyalashtirish, ta’lim oluvchilarning bir butun rivojlanishiga erishishni ta’minlaydi.

“O‘quvchilarning o‘qish faoliyatini shakllantirish texnologiyasi. Ushbu texnologiyaning mohiyati shundaki, unda o‘qish faoliyati o‘quvchilar o‘qish faoliyatining alohida shakli sifatida olib qaraladi. U o‘quv topshiriqlari yordamida bilim olishga yo‘naltirilgan” [5].

Quyida biz baxshichilik bo‘yicha 6-sinf o‘quvchilari uchun 1 ta mavzuni texnologiyasini yoritib beramiz.

1-dars. BAXSHI SAN’ATI

Bu mavzuda biz:

- Baxshi atamasining mazmunini tahlil qilamiz;
- Baxshichilik san’atining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini

Ta’limiy maqsad – “Baxshi” atamasining mazmunini anglagan holda hulosa chiqarish.

Tarbiyaviy maqsad – Baxshichilik san’atining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati yuzasidan qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad – tasavvurni kengaytirish, mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar:


Baxshi, qo‘shiq, doston, epik kuychi, ijrochi, ijodkor, meros, afsona, rivoyat.

Baxshi – terma, qo‘shiq va dostonlarni saqlovchi, yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi san’atkor, xalq dostonchisi. Uning shirali ovozi, do‘mbirasidan taralayotgan kuy inson qalbini beixtiyor to‘lqinlantiradi, junbushga keltiradi.

Baxshi – epik kuychi, ijrochi va ijodkor. Usozandalik, bastakorlik, hofizlik, aktyorlik va so‘z mahorati ijrochiligini mukammal o‘zlashtirgan, professional qobiliyatga ega ijodkordir.

Baxshi atamasiga sinkveyn tuzing.

1. Ot – Baxshi;
2. Sifat - _____
3. Fe’l _____
4. 4ta so‘zdan iborat jumla _____
5. Sinonim



Baxshichilik san’ati tafakkuri keng ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan eng qadimiy san’atlardan biridir. Bu san’atning jonli ijro holatida bugunga qadar bardavomligi, avlodan-avlodga yetkazish yo‘lida baxshilarning xizmatlari katta. Shu sabab, baxshi san’atini rivojlantirish hozirgi davr talablaridan biridir. Negaki, dostonlarda xalqimizning azaliy orzu armonlari, yuksak tafakkur salohiyati, mardlik, hur fikrlilik, erkinlik, bunyodkorlik, halol mehnat, imon-e’tiqod g‘oyalari ilgari surilganligi bilan ham ularning tarbiyaviy ahamiyati tobora ortib borayapti. Baxshilar qachonlardir yaratilgan xalq dostonlarini o‘zlarining hayratomuz xotirasida saqlab qolib, bizgacha yetkazgan.

Ba’zan o‘zi ham eng qadimiy va barqaror epik an’analar asosida yangi asarlarni ijod qila bilgan baxshi xalqimizning hamisha hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lgan. Bu san’at ko‘pincha el orasida “ilohiy” tushuntirilib, baxshi nomi turli afsonalar, rivoyatlar, qo‘shiq va naqllarga burkangan. «Mullali ovul - qo‘rqoq, baxshili ovul- botir» degan maqol ham bejiz aytilmagan. Xalq nazdida elda baxshining bo‘lishi shodlik, xursandchilik, to‘qchilikdan nishonadir.

«Yurtga balo kelar bo‘lsa, to‘ra bilan to‘zon kelur, yurtga davlat hunar bo‘lsa, baxshi bilan o‘zon kelur» degan hikmatning keng tarqalishi ham xalq ijodkorlariga bo‘lgan juda katta hurmat, izzat va ehtiromningnatijasidir.

Baxshichilikda ijro etiladigan doston, terma, bag‘ishlovlar orqali odob-axloq, pand-nasihati, yoshlarni ma’naviy tarbiyalash, o‘z yurtiga sadoqat, qahramonlik, vatanparvarlik, mardlik, insonparvarlik, erk va ozodlik, mehnatsevarlik, or-nomus, matonat kabi g‘oyalar tarannum etiladi. Baxshi san’atining asosini soz va so‘z, ijro uyg‘unligi tashkil qiladi. Birgina soz chala bilish, kuchli ovozga ega bo‘lish yoki dostonni yoddan bilish bilan baxshi bo‘lolmaydi. Chinakam baxshida mustahkam xotira, bilim, zakiylik, ijodkorlik, biror bir soz ijrosi, ovoz kuchi, yuksak mohirona ijro bir-birini to‘ldirib namoyon bo‘ladi. Shu sabab, baxshi shunday katta ijodiy imkoniyatiga ya’ni badihago‘ylik salohiyatiga ega. U doimo xalqni o‘ylaydi. Baxshi kerakli paytda davrning eng katta gapini qisqa, yorqin tarzda odamlarga yetkazishi mumkin. Demak, bugunning baxshisi eng murakkab holatlarda ham butun olam ahlini o‘ylantirayotgan masalalar mohiyatini odamlar ko‘ngliga badiiy tarzda yetkaza oladi.

Baxshi eng kerakli paytda, eng kerakli so‘zni aytib xalqni yaxshi, ezgu ishlarga safarbar eta olar ekan, demak bugun baxshi san’atini yanada rivojlantirish xalqimizning eng go‘zal ma’naviy, ijodiy boyliklarni qaytadan hayotga kiritish ekanligini unutmasligimiz darkor.

«Gapni to‘ldiring!» refleksiya mashqi

1. Men bugungi darsdan menga kerakli bo‘lgan ma’lumotni oldim.
2. Bugungi darsdan men uchun foydali bo‘lgan ma’lumotlar, bular.....
3. Darsda menga yangilik bo‘lgan ma’lumot bu va takror

Xulosa. Pedagogik texnologiyalarning ishlanishida asosiy e'tibor oxirgi natijaga qaratilgan bo'ladi va qo'yidagi izchillikda ishlab chiqiladi. Pedagogik texnologiyalar an'anaviy ta'limdan tubdan farq qilgan holda tuziladi. U o'zaro yopiq siklni va o'zaro izchil bog'liqlikni taqozo etadi. Aniqlashtirilgan maqsadlar pedagogga nazorat ishini belgilashda, baholashda va usullarni aniqlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Barcha etaplar bir maqsadga bo'ysunadi va yuqori natijani kafolatlaydi.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. A.Musaqulov. Terma // O‘zbek folklori ocherklari. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1988. – B.261-272.
2. O‘zbek folklori. Tuzuvchi H.Zarifov. – Toshkent, 1939.
3. A. Musaqulov. Doston va terma munosabatiga doir // Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 1978. – B.176-184.
4. R.Oripova. O‘zbek musiqa san’atining rivojlanish tendensiyalari. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X.
5. R.Oripova. Integrallashgan ta’limda texnologiyalar."Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / Volume 3 Issue 4 / December 2022. ISSN 2181-063X
6. O.Yakubov. Lingvistikada assotsiativ metoddan foydalanishning pedagogik modeli. /O‘zMU xabarlari – Toshkent 2023. 1/8/1

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 3 СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР 3

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE 3

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz